

**MAKTAB O'QUVCHILARIGA CHET TILINI O'RGATISH
JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

Karimjonova Hulkar Ilxomovna

Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti

Xorijiy til va adabiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

Nilufar Nigmatullayevna Zubaydova

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: Ayni vaqtda chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish yoshlar o'rtasida tobora ortib bormoqda. Chet tillarini o'rganuvchilarga ko'plab uslublarda, xususan , zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim berilsa, bilim samaradorligi hamda natijasi yuqori darajada bo'ladi. Ushbu maqola zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanib, chet tilini o'rgatishni osonlashtirishni targ'ib qiladi.

KALIT SO'ZLAR: Ilm-fan innovatsiyalari, kommunikatsion texnologiya, ingliz tili grammatikasi, grafik organayzerlar, CD pleyerlar, o'rganish aspektlari.

Hammaga ma'lumki, bugungi kunda ilm-fan, texnika taraqqiyoti kun sayin o'sib jadallashib bormoqda. Shu bilan bir vaqtda ushbu yangi texnologiyalar jamiyatdagi har bir sohaga, jumladan, tibbiyot, ishlab chiqarish, ta'lim tizimi hamda va hokazolarga ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ta'lim tizimidagi islohotlarni ham, chet tillarini targ'ib qilish ham shu jumlagi kiradi. Yildan yilga insonlar o'rtasida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Natijada bu holat eng ommalashgan til hisoblangan - ingliz tilining mavqeyi ortishiga ham sabab bo'ldi. Shuning uchun tilni o'rganuvchilar soni ko'paygani sayin uni turli xil zamonaviy texnologik yo'llar yordamida osonlashirib o'rgatish turlari ham ko'payib boraveradi. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar hamda talabalarni faqat tayyor bilimlarni puxta egallab, ularni kengaytirishga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'z-o'zlari izlab , qidirib topishlariga .mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga , va hattoki xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga katta imkoniyat bera oladi. Shuningdek, o'rgatuvchi - ya'ni muallim ham bujarayonda har bir kishining shaxsiy takomillashuvi, rivojlanishi, shakllanishi hamda hattoki tarbiyalanishiga ham zarur shart hamda sharoit yaratib beradi. Va shu bilan bir vaqtda, inson psixologiyasida boshqaruvchilik va yo'naltiruvchilik vazifalarini ham bajarib beradi. Zamonaviy texnologiyalar - bu innovatsion texnologiyalar demakdir. Innovatsiya (inglizcha - innovation) yangilik, yangilik kiritish degan ma'nolarni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talabalarning faoliyatiga yangilik hamda o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda, asosan, interaktiv

metodiklardan ham to'liq foydalaniladi. O'quv jarayonlarini kompyuter texnologiyalari orqali olib borish esa, nafaqat o'qituvchilarga talabalarga bilim berishni osonlashtiradi, balki, o'quvchilarga tilni yanada chuqurroq o'rganib, malakali darajadagi mutaxxasis bo'lishga katta yordam beradi. Innovatsiyalar shuningdek, ta'lim olish vaqtida ham o'ziga xos ravishda rivojlanib boradi. Ta'lim olish vaqtida talabalarning nazariy va amaliy bilimlari hamda malakalari ham barobar rivojlanadi. Va natijada esa ular ertangi hayotning innovatsiyalar bilan bog'liq turli sohalarida ham qo'llanilishi mumkin bo'ladi. Bu jarayonda chet tilini o'rganish ancha qiyinchiliklarni yo'qqa chiqaradi. Va bu vaqt mobaynida o'quvchi turli xil murakkab qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Har qanday chet tilini o'rganish jarayonida, avvalo, bu tilning grammatik jihatlari talaffuz qilish jarayonlari o'rganiladi. Bu jarayonlar, ayniqsa, til grammatikasini o'rganish jarayoni an'anaviy tarzda ham o'rgatilsa bo'ladi. Bir ko'rinishda grammatika o'rganish uchun eng qiyin bo'lgan qoidalar jamlanmasiga ham o'xshab ko'rinishi mumkin, lekin ishonish kerakki, aslida bunday emas. Har qancha qiyin, chalkash va zerikarli ko'rinmasin, u bir necha soniyalar ichida o'rganish uchun dunyodagi eng oddiy hamda oson narsalardan biriga aylanishi mumkin. Til o'rganish jarayonida, o'qituvchi muayyan bir mavzuni o'qitishda, uning oson va to'liq o'zlashtirishiga imkon bera oladigan maxsus ham texnologik didaktik vositalar, texnologiyalar, metodika turlaridan foydalangan holda dars samaradorligiga ham erishadi. Shu bilan bir qatorda o'quv materiallari, mavzulari o'zi aloqador bo'lgan fanning ham eng katta va muhim yuksak yutuqlarini ham o'zida mujassam eta oladi.

1 - O'qish (Reading) dars jarayonida ushbu mahoratni qo'llash uchun proyekter, kompyuter, turli xil elektron gadjetlardan ham foydalanishimiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, projektorni kompyuterga ulash orqali ham darsda o'quvchilarga katta ekranlarda kichik maqolalarni, darsga oid mashg'ulotlarni, badiiy asar hamda kichik hikoyalarni ham ko'rsatish mumkin bo'ladi. Ba'zi o'rganuvchilarda ko'rib eslab qolish qobiliyati anchagina darajada ko'zga ko'rinarli bo'ladi. Va ular shu orqali tilni mukammal o'rgana oladilar.

2 - Tinglash (Listening) Til aspektlarining ushbu mahoratida o'quvchiga kompyuterdan foydalanib, audio qo'yib beriladi. O'quvchi esa o'zining eshitish analizatorlari yordamida qo'yilgan audioyozuv miyada yaxshi analiz qilinadi. Bu holatda o'quvchi ham bir vaqtda tinglaydi, ham native speaker hisoblangan kishining o'z ona tilisida ya'ni ingliz tilidagi so'zlarni qay darajada to'g'ri talaffuz qila olishini ham o'rgana oladi. Tilni osonlik bilan o'rganishda, kompyuterning roli katta ekanligini ko'plab olimlar ham o'z tadqiqotlari hamda izlanishlari mobaynida aytib o'tgan. Bundan tashqari o'quvchilar kompyuter hamda turli xil gadjetlardan foydalangan holda xorijdagi yaqin do'stlari hamda tengdoshlari bilan ingliz tilida yozma aloqa va muloqot ham qiladilar. Va shu bilan birga audio orqali ham ma'lumotlarni almasha oladilar. Bu jarayon ham o'quvchilarda listening jarayonini yaxshilashga hamda rivojlantirishga

katta yordam beradi.

3 - Gapirish (speaking) Ushbu mahoratda o'quvchining fikrlash qobiliyati ham juda katta ta'sirda bo'ladi. Bunga asosiy sabab o'quvchi gapirish jarayonida til ko'nikmalarining rivojlanishi ham juda katta ahamiyatga egaligi bo'ladi. Dars jarayonida kompyutertexnologiyalari orqali o'yin tarzida bu mahoratni ham oshirishda mumkin bo'ladi. Masalan, namuna o'rnida aytish mumkinki, o'quvchi dars jarayonida birorbir kompyuterdan foydalanib, istagan bir raqamni tanlaydi, hamda uning ortidagi mavzuga (o'zining yoshi va bilim darajasiga mos, albatta) o'z fikrlarini hamda mulohazalariniing uztilida gapirib tushuntirib beradi. Bu jarayonda auditoriyadagi boshqa a'zolarining ham eshitish qobiliyatlari hamda tinglab tushunishlari ham rivojlantirib boriladi. Bu kabi o'zaro hamkorlar bilan bo'lgan mavzu muhim kamalari bolalarning eslab qolishlariga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Yozish-(writing) Bu mahorat darslari qolgan 3 tasiga qaraganda ancha murakkab hisoblanib, bunda asosan o'quvchining fikrlash qobiliyati, va shu bilan bir qatorda malakalari, til grammatikasidan foydalanishi juda muhim hisoblanadi. Bu o'rinda ayniqsa ijtimoiy sohada ijtimoiy tarmoqlarning ham o'mi muhim bo'ladi. Interaktiv maxsus hamda elektron doskalardan foydalanib, yozish jarayonini ya'ni ushbu til o'rganish mahoratini yanada rivojlantirish mumkin bo'ladi. Ya'ni dars mobaynida ushbu doskalar ham o'qituvchiga ham talaba va o'quvchilarga ancha qulaylik tug'diradi. Ushbu doskalardan dastlab oddiy dars mashg'ulotlarini tushuntirish, mantiqiy iboralarni ifodalashda foydalangan. Ayni vaqtda esa uning imkoniyat hamda vazifalari ham oshib bormoqda, va shu bilan birga rivojlanib ham bormoqda. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda shu narsani aytish mumkinki, informatika umuman, raqamli texnologiyalar chet tilini o'rganish metodikasida juda katta ahamiyatga ega sanaladi. Endilikda, xorijiy tillarni o'rganish informatika umuman zamonaviy hamda innovatsion texnologiyalar yordamida yanada osmon hamda juda katta tezlikda o'rganilmoqda. Buning uchun albatta, yaqin kelajakda jamiyatda o'z o'rnini egallaydigan yosh avlodlami, umuman, ertangi yangi kadrlami yanada malakali ham tajribali qilib yetkazib berishda zamonaviy texnologiyalarning o'mi juda ham katta. Hammaga ma'lumki, bugungi globallashgan jarayonlarda hayotimizni ijtimoiy tarmoqlarsiz qisqa qilib olganda, internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Shuning uchun aytish kerakki, ayni vaqtda yoshlarning ko'pchiligi o'z vaqtlarining ko'pini internetga hamda ijtimoiy tarmoqlarga sarf qiladilar. Bu jarayonda albatta ularda o'qishga bo'lgan qiziqish va e'tibor kamayishi va susayishi mumkin. Ko'p bolalar, ayniqsa maktab o'quvchilari kompyuter o'yinlarida va televizion o'yin turlariga ko'proq vaqt ajratishi tayin, albatta . Shuning uchun ham dars jarayonlarida ko'proq bolalarning o'zlari qiziqqan narsalariga ko'proq yondashib ularning fikrlashlariga mos holda dars jarayonlarni olib borish juda muhim hisoblanadi. Yuqoridagi ko'nikmalarning shakllanishi albatta har bir o'quvchida gapirish, tinglash, o'qish, va yozish kabi

qobiliyatlarning shakllanishiga katta omil bo'ladi, va o'rganuvchilarda tilning to'liq o'zlashtirilishiga zamin yaratadi. Albatta yuqoridagilardan olib qaraganda gapirish ko'nikmasini maksimal darajada rivojlantirish uchun ancha muddat hamda sa'y harakat talab qilinishi mumkin. Ammo uy sharoitida inson yolg'iz qolganida gapirish mahoratini yanada yaxshilash uchun oyna yordamida ma'lum bir mavzuga tayyorlangan holda so'zlab berish, yoxud do'stlar va oila davrasida ham ko'proq ingliz tilida yoki o'rganilayotgan ma'lum bir chet tilida so'zlashi tilning chiqishi, umuman, yaxshilanishiga katta imkoniyat yarata oladi. O'qish jarayonini yanada mukammal qilishingiz uchun esa, ko'proq mustaqil tayyorgarlik ko'rish, mustaqil ravishda ingliz tilidagi kichik maqola yoki hikoyalardan boshlab, katta - katta novellalar va romanlargacha tarjimasi bilan boshidan oxirigacha o'rganib chiqish katta samara beradi. Ushbu jarayonda o'quvchining nafaqat til ko'nikmasi balki o'qish tushunish, agarda o'qilayotgan maqola xorijiy davlatlarnikiga aloqador bo'lsa, ularning millati urf odatlarini tarjima orqali o'rganish bilan shaxsning dunyoqarashi ham yanada shakllanib borishi kutiladi. Dunyoqarash rivojlangan sari esa insonning o'z vaqtini behuda sarflamaslik, ko'proq vaqtini mazmunli o'tkazish kabi xulosalar chiqarishiga ham sabab bo'ladi. chet tillarini o'rganishda internetdan foydalanish eng samarali usul ekanligi hammaga ma'lum. Va bu holatda, E-mail orqali chet eldagi tengdoshlar bilan ham gaplashish ancha qulay va bu (speaking) jarayonining ham takomillashiluviga o'z ta'sirini ko'rsata oladi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy - raqamli, kommunikatsion texnologiyalarni va umuman, yangi hali foydalaniladigan texnikalarni olib kirish, va ulardan o'rnida foydalanib bolalarni ham internetdan to'g'ri hamda unumli foydalanishga o'rgatish, har bir o'quvchida o'qishga nisbatan qiziqish, ishtiyoqni uyg'otish o'qituvchi hamda murabbiyalarga ham katta ma'suliyat yuklaydi. Bu orqali ta'lim tizimidaham zamonaviy texnikaviy uslublardan foydalanishni rivojlantirishga ham katta imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, ta'lim jarayonlarida grafik organayzerlardan ko'proq foydalanish, o'quvchilarning ayniqsa ko'proq ko'rish yordamida o'rganuvchilarga katta yordam beradi. Grafik organayzerlar turlari:

1. WITHOUT

TRANSLANTION METHOD (TARJIMASIZ METOD) Ushbu metodekadan foydalanish juda muhim sanaladi. U asosan dars jarayonida o'rgatilishi muvofiq 2 turga ya'ni metodga bo'linadi. Tabiiy hamda to'g'ri metod. Tabiiy metodda chet tili o'rganish jarayoni kabi kechadi. Ushbu metodning asosiy maqsad chet tilida so'zlashuv ko'nikmasini shakllantirish hamda yanada mustahkamlash hisoblanadi. Bu orqali o'qish hamda yozish texnologiyalarini yanada mustahkamlash o'rganishga imkoniyat yaratadi. Tabiiy metodning esa tarkibiga kiritilgan asosiy prinsiplaridan biri bu xorijiy ya'ni chet tili muhitini yaratish hisoblanadi. Olg'a surilgan yangi metodek tamoillarni amalda qullash mabopynida esa turli yondashuvlar ham revojlantiradi.

2. COMMUNICATIV DIDACTIC METHOD OF TEACHING ENGLISH (Ingliz

tilining o'rgatishning komunaktiv dedaktik metodikasi). Ushbu metodika asosan tenglab tushinish material sifatida tabiiy nutqiy vaziatdan foydalanishni dastlabki o'ringa quyadi ya'ni misol uchun, vakzaldagi e'lonlar, transfort vositalar pish taxtalardagi radio va telvidiniya reklamalari, telefondagi suhbatlarni aytish mumkin.

3. ROLLY GAMES. Ushbu metodika o'yin juda ommalashgan uslublardan biri sanaladi. Ko'pchilik o'qtuvchilar maktablarda dars jarayoni o'yinlar orqali ancha mustahkamlaydi. Bu o'yin asosan o'quvchilardan ravon nutqni revojlantiradigan, sinfdan uzaro muloqat jaratoni mustahkamlaydigan, shu bilan birga g'ayratni oshirib boradigan komunaktiv texnologiyaning barcha muhim yunalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa o'rnida, yana shu narsani ta'kidlash joizki, har bir o'quvchi o'zi o'rganayotgan tilni chuqur darajada o'zlashtirishi uchun zamonaviy proyektorlardan, texnik innovatsion vositalardan foydalanib, texnologiyalarni qo'llagan holatda o'rganib borsa dars samaradorligi o'qtuvchi uchun ham foydali bo'ladi, va ushbu jarayonda o'quvchi hamda talabalar ham zerikib qolmaydilar, va aksincha ularning o'qishga bo'lgan qiziqishi, nafaqat qiziqishi va balki ishtiyoqi ham malum darajada oshib boradi. O'qishga bo'lgan ishtiyoq avvalgiga qaraganda ancha kuchayib boraveradi. Qisqaqilib aytganda, yuqorida takidlanganidek, bu singari zamonaviy texnologiyalar jamiyatdagi har bir sohaga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Aksincha, har bir tizimga o'zi ta'sir o'tkazib, ularni rivojlantirilishiga va kelajakda katta yutuqlarga erishib, takomillashib boraverishiga katta zamin yaratadi. Yorqin kelajak har birimizning o'z qo'limizda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Nafisa Rayimova Kobilovna. Chet tilini o'rganish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish
2. Abdushukur Musayevich Shofqorov. Til ta'limida grafik organayzerlardan foydalanish.
3. Z. Sh. Tursinova . G. A .Lutfullina . Smart topics in English. 2018
4. M .Madrahimova . Til ta'limda grafik organayzerlardan foydalanish. 2008
5. A.A.Haydarov. Tillar o'qitish metodikasi va talim texnologiyasi.2022
6. Jalolov.J. Chet tili o'qitish metodikasi.2012
7. <https://in-academy.uz>
8. <https://www.pedagoglar.uz>